

Бухоро давлат университети магистрантларининг илмий мақолалар тўплами



2016

ТАҒАККУР ВА ТАЛҚИН

СЪЕРНИК НАУЧНЫХ ТРУДОВ МАГИСТРАНТОВ * COLLECTION OF SCIENTIFIC ARTICLES OF BUKHARA STATE UNIVERSITY POST-GRADUATE STUDENTS



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

ТАФАККУР ВА ТАЛҚИН

(Магистрантларнинг илмий мақолалар тўплами)

5

Бухоро- 2016 йил

МУНДАРИЖА/ СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

ТАРИХ (фундаментал ва мамлакатлар бўйича)	
SABIROV A.R. Osiyo mamlakatlarining XVI asr o'rtalari tarixi to'g'risidagi muhim manba	4
ERGASHEV J.Y., SHODIYEVA SH. Afg'onistondagi o'zbek ziyolilari va hukumat arboblari.....	6
БОБОЖОНОВ Ш.У., ҚУРБОНОВА М.Б. Ўзбекистон ва жанубий – шарқий осийё таълим ҳамкорлиги йўлида	8
ПСИХОЛОГИЯ (фаолият турлари бўйича)	
КАЗИМОВА З. Стресс у студентов высших учебных заведения.....	11
RADJABOVA U.U. Vrach kasbiy mahoratini shakllantirishning psixologik asoslari	16
ЛИНГВИСТИКА (ўзбек)	
AMONOVA L. Navoiyning tazod yaratishda qo'shma fe'llardan foydalanish mahorati	19
AHMADOVA U.Sh. Publitsistik uslubda shaxs nomlarini ifodalovchi tasviriy ifodalar	21
JO'RAYEVA B., BAROTOVA M. Murojaat shakllaridagi xoslanishlar	24
HAMROYEVA M. Matnning lingvistik tahlili	26
ЛИНГВИСТИКА (инглиз)	
ABDULLAYEVA G.G. Sinxron tarjima- tarjimaning bir turi sifatida	32
JUMAYEVA O.I. Ingliz va o'zbek tillaridagi otlarda son kategoriyasining ifodalanishi	34
XAYATOVA Z.M. V. Tekerey va Ch. Dickens asarlaridagi realistik obrazlarni qiyosiy o'rganish	36
АДАБИЁТШУНОСЛИК (ўзбек адабиёти)	
TOSHEVA D.I. „Saddi Iskandariy“da talmeh san'ati	38
SAIDOVA R. Lirik matnning ichki munosabatlari	40
ЗОЙИРОВА Г. Н. Ш. Холмирзаев эсселари ҳақида	42
RAJABOV T. Mustaqillik davri o'zbek she'riyatining takomili va taraqqiyoti	44
АДАБИЁТШУНОСЛИК (инглиз адабиёти)	
HAMROYEVA SH. Walter scott, the acknowledged master of historical novel in the english literature	48
KHAYDAR-ZADE G. Use of some colour symbols in " the lord of the rings" by J.R.R.Tolkien	50
TURAYEVA X.T. The image of woman in the novel "an interrupted friendship" by E.I.Voynich	53
SAIDOVA N.A. "Garri Potter" asarida muallifning sehr-jodu ifodalash mahorati	57
RAXIMOV M., RO'ZIMURODOVA Z. "DA VINCHI SIRI" asarida ramzlar va ularning zamon va makon bilan bog'liq xususiyatlari.....	61
TUXTAYEVA F. Interpretation of orientalism through the analysis of emily dickinson's work	63
ФИЗИКА	
NAZAROVA SH.ERKINOVNA, BARNOYEVA L.YU. Fizika ta'limida uzviylik prinsipining metodologik asoslari	65
TOYIROVA U.I. Quyosh foto-issiqlik o'zgartirgichdagi issiqlik jarayonlarini	68

Shayxlar shayxi – Xo'ja Ahror Valiy

Xo'ja Ahror Valiy o'z davrida 25–30 yil mobaynida Markaziy Osiyodagi xalqlarni birlashtirish, siyosatchilarning boshini qovushtirish orqali har xil to'qnashuv larning oldini olish uchun bor kuch-g'ayratini sarflagan, uning yuksak obro'-e'tibori bunda hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan va Shayxlar shayxi deb nom olgan bu ulug' zotning gapini biror hukmdor, hokim, shahzoda ikki qilmagan [1,23].

Inson ruhining muhandislari – shoir va yozuvchilar

Adabiyotni insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarning esa inson ruhining muhandislari, deb ta'riflanishi bejiz emas, albatta [2, 136].

Xalq ma'naviyatining munosib egalari – yoshlar

Yana bir dolzarb vazifa – o'sib kelayotgan avlodga, uning ma'naviy tarbiyasiga nihoyatda katta javobgarlik hissi bilan yondashish masalasi. Nega deganda, yoshlar xalq ma'naviyatining munosib egalidir [2,80].

Yashil maydon sohiblari – futbolistlar

O'n to'rtinchi iyulda Britaniya yashil maydon sohiblarini kutib oladi. [Davr informatsion dasturidan Miraziz Mirzayevning sport xabarlari haqidagi nutqidan].

Salomatlik posbonlari – shifokorlar

"Barkamol avlod – 2014" sport musobaqalarida namanganlik salomatlik posbonlari zimmasiga musobaqa ishtirokchilarining sog'lig'ini muhofaza etish vazifasi yuklatilgan [3, 15].

Keltirilgan misollar orqali fikrimizga oydinlik kiritar ekanmiz, ommaviy axborot vositalari publitsistik uslubda ish ko'rishi bilan birgalikda, **axborot berish va ta'sir qilish** vazifasini ham bajarishi va bunda, albatta, tasviriy ifodalardan o'rinli, samarali foydalanilganligiga ishonch hosil qildik. Buning to'laqonli tasdig'ini esa Prezidentimiz asarlaridan keltirilgan misollarda ko'rdik.

Adabiyotlar

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Тошкент: "Шарқ", 1998. –31 б.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: "Ma'naviyat", 2009. –173 b.
3. Ma'rifat, – 2014. 33-son, 16 bet.

MUROJAAT SHAKLLARIDAGI XOSLANISHLAR

JO'RAYEVA B. (BuxDU dotsenti), **BAROTOVA M.** (BuxDU magistr talabasi)

Til aloqa qilish, fikrlash va rivojlanish quroli bo'lib, har bir xalqning milliyligi va o'tmishini ko'rsatib turuvchi mezondir. Yurtboshimiz I.A.Karimov ham tilimizning ahamiyatini ta'kidlab: "Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy- ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi... Ona tili bu millatning ruhidir", degan fikrlarni ilgari suradilar [1, 83]. Shunga ko'ra, o'zbek millatida ham o'zaro bir-biriga murojaat qilishning bir necha xil shakllari bo'lib, ular hududiy, tarixiy va azaliy an'analarga ko'ra turlicha ifodalanadi. O'rta Osiyoda islom dinining keng tarqalishi bilan bog'liq holda shariatning nikoh munosabatlariga ta'siri ham kuchaygan. Masalan, musulmon olamida er-xotinning bir-birining ismini aytib chaqirishi tabu hisoblangan. Natijada ma'nosi aniq bo'lmagan olmosh, olmoshlashgan so'zlardan evfemistik vosita sifatida foydalanish urf bo'lgan. Kishi ismi o'mida qo'llanuvchi bu kabi so'z va iboralar, ayniqsa, kelinlar nutqida ko'p uchraydi. Masalan, A.Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanida yorini sog'ingan Kumush Otabekka yozgan xatida o'zini **boshqalar**,

Otabekni esa **birovlar** olmoshi bilan anglatadi: “Siz –qochqoqsiz, nari-beri til uchida menga bir narsa yozg`andek bo`lib qochqansiz, ikki yil bo`yi Marg`ilon kelib yurishingizni men – o`zimcha echdim: ...sizning barcha mashaqqatlaringiz – dushmanlaringizdan o`ch olish bo`lganini angladim. Yo`qsa, meni ko`rar edingiz, ko`rgingiz kelmaganda ham boshqalar sizni ko`rar edilar, to`yar edilar... Nihoyati maqsadim ikki do`stga bir cho`rilik va shu munosabat bilan birovlarini ko`rib yurish...”[3]

Yoki Cho`lponning “Kecha va kunduz” asaridan olingan ushbu parcha ham fikrimizni dalillaydi:

“O`zbekda axir har bir erkak o`z xotinini – o`z halol juftini qizi yo o`g`lining nomi bilan atab chaqiradi. O`z xotinining ismini aytib chaqirish yaramaydi. Xotinining ismi Maryam, qizining ismi Xadicha bo`lsa, mo`min-musulmon – sharmu-hayo yuzasidan bo`lsamikan? – xotinini “Xadicha” deb chaqiradi. Aksar ona-bola baravar “labbay!” deydi, shunday-da oilaning haqiqiy egasi bo`lgan ota: “kattangni aytaman, kattangni!” deydi. Hatto shunda ham “Maryamni” demaydi” .[5]

O`tmishda, Farg`onada yashovchi oilalarning ko`pchiligida, hozir ham, ayolning o`z erini bolalaridan birortasining (ko`proq bosh farzandning) nomi bilan chaqirish va “o`g`limning dadasi”, “mening erim”, “xo`jayinim” singari iboralardan foydalanish keng tus olgan. Er xotin haqida gapirganda “keliningiz”, “qizingiz”, “oilam” kabi so`z va iboralarni qo`llash odat tusini olgan.

Kishiga uning ismini atamasdan murojaat etish dunyodagi ko`pgina millatlarda, jumladan, shor va abxazlarda, arman va koreyslarda, gruzin va ozarbayjonlarda, qumiq hamda turkmanlarda juda keng tarqalgan. Bu odatning turli millat xalqlari turmushida uchragan va hozirda uchrovchi turli-tuman shakllari haqida etnograflardan N.P.Direnkova, I.I.Ibrohimov, S.M.Amramzon, L.X.Akaba, Ya.S.Smironova, S.D.Listisin, S.Sh.Gadjieva, E.Begmatov va boshqalar qiziqarli fikrlarni bayon etishgan.

Turli badiiy asarlar asosida olib borilgan tadqiqotlardan ma`lum bo`lishicha, keyingi yillarda o`zbeklarda qarindosh-urug`, yoru do`st, tanish-bilish, er-xotinlar bir-birlariga o`ndan ortiq ko`rinishda murojaat etar ekanlar.Ulardan ayrimlariga to`xtalib o`tsak:

1. a) “dada”, “ona” yoki “dadasi”, “onasi” (Buxoroda):

- Shu sizning vaqtingiz oz, ko`chada ishingiz ko`payib ketganidan, kuldi otam, - oldingi yurishingiz ham bir nav edi, hozir salomlashishga ham qiynalyapmiz.

- UZR, **dada...** –dedim so`nggi paytlar darhaqiqat ko`chadan kelmay qo`yganimni eslab.

- Odamning tirikligi – uy-joy... Sayoq yurgan tayoq eydi!...

- Men tushundim, **dada**, - dedim otam eshitib olsin uchun baqirib.

b) “ada”, “aya”, “buva” (Toshkent, Farg`onada) :

Hovli jimjit. Ayvonda xira osma chiroq allanechuk kir yog`du to`kib turibdi. Saida yaqinroq borib qarasa, ayvonning pastida kimdir, boshi bir tomonga qiysaygan, chalqancha tushib yotibdi. Karim: “Voy, **aya**, sizga nima bo`ldi, turing!” deb uning qo`lidan tortdi.

v) “bovasi”, “momosi” (Surxondaryoda) :

-Men bu kishini **bovasi** deb chaqiraman.

- Men seni **momosi** deb.

-**Bovasi.**

-**Momosi...**

2. O`z ismlarini aytib. Bunday murojaat shakli hozirgi kunda respublikamizning barcha hududlarida ommalashgan bo`lsa-da, Qoraqalpog`istonda hali ham xotin kishining ismini aytib chaqirish tabu hisoblanadi.

a) ismini to'liq aytib:

- **Saltanat**, - dedi xotinini erkalab. – Bilasanmi, xuddi marhum Sergey Matveevichni ko'rgandayman... [2, 65].

b) ismini qisqartirib:

Itak, to'rtta bolam bor. Maratik – Nukusda.

...**Nigorochnka** – Samarqandda. Tois, **Nigorochnka** emas, **Nargizochkal Nigorochnka** – Qo'qonda... [6, 297].

3. Ma'lumki, nomlash jarayonida adresant adresatning muhim belgilarini inobatga olibgina qolmay, o'zining unga bo'lgan emostional munosabatlarini ham ifoda etadi. Xuddi shu tufayli "azizim", "begim", "malikam", "go'zalim" kabi erkalovchi murojaat nomlar yuzaga kelgan:

- **Jonim**.

Kumushbibi begona qo'ldan seskandi va qo'llarini quqqazmoqqa tirishib:

- Ushlamangiz, - dedi... [3,50]. Bunday nomlanishlarga adresatning qanday davrada turganligi ham bevosita ta'sir etadi.

Kishi ismlariga erkalovchi va hurmat ma'nosini qo'shib aytish bizda qadimdan odat bo'lib, ayniqsa, ota-bobolarimiz bu udumga qattiq rioya qilishgan. **Muhtaram, mavlono, aziz** singari sifatlashlar kishi ismlariga qo'shib ishlatilgan:

- Men hademay katta yigit bo'lib qolamen, **muhtaram Abu Abdulloh**... [4, 24].

- Biz g'oyat xushnudmiz, **muhtaram Abdulloh** [4, 24].

- **Mavlono Shamsiddinni** Damashqdan topolmadi, - deb eslaydi Valad [4, 221].

4. Farzandlaridan birining (ko'proq bosh farzandining) ismini aytib:

Oradan qancha so'zlar oqib o'tdi. O'sha gap, o'sha ovoz. Faqat endi "Nuriddin" emas, "**Kamoliddin**".

- Sizga nima bo'ldi **Kamoliddin**?

5. Ayollar erlarining ismiga "aka" so'zini qo'shib:

Bashirjon go'sht masalasida u bilan kelisholmaganiga afsuslanib, oshxona tomon yo'l olarkan, orqadan eshitilgan o'ziga tanish, ingichka tovushdan cho'chib tushdi:

Voy, **Bashirjon aka**, bormisiz? [2,241].

6. Kasbi, lavozimiga ishora qilib. "Domla", "muallim", "o'rtoq direktor", "o'rtoq sekretar" kabi shakllarda murojaat etish shunga misol bo'ladi. Masalan:

Ilhomjon barankadan boshini ko'tarib:

- Keldingizmi, **domla?** – deb so'radi.

- Ha, - dedi Bashirjon va uning yonidagi o'rindiqqa o'tiribolarkan, "Farishtalar "Omin!" degan ekan-da", deya pichirladi.

- Qayoqa, **domla?**

- Uyg'a haydang! [2, 225].

Demak, bundan xulosa qilib aytish mumkinki, murojaat shakllarining qo'llanishi oddiy holat bo'lmay turli vaziyatlar, adresantlarning xususiyati, hududiy mansubligiga ko'ra xoslangan bo'ladi. Bunda yoshlar nutqida asosan, ismlarni to'liq va qisqargan holda aytish, ba'zan ism oldidan "aka", "opa" so'zlarini qo'shib chaqirish ko'p kuzatilsa, keksalar va o'rta yoshlilar nutqida erkalash va hurmat shakllarini qo'llash ko'proq uchraydi. Birgina murojaat shakllarini turli ko'rinishlarda ishlatilishi ham tilimizning yana bir qirrasini deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Karimov Islom. Yuksak ma'naviyat–engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.-176 b.

2. Aminov.N. Qahqaha. – T .: G'.G'ulom,1987. -351b.
3. Qodiriy.A. O'tkan kunlar. Www.ziyo.uzcom kutubxonasi.
4. Oybek. Navoiy. Www.ziyo.uzcom kutubxonasi.
5. Cho'lpon. Kecha va kunduz. Www.ziyo.uzcom kutubxonasi.
6. O'.Hoshimov. Daftari hoshiyasidagi bitiklar. – T .: Sharq,2013. -334b.

MATNING LINGVISTIK TAHLILI

HAMROYEVA MAFTUNA (BuxDU magistr talabasi)

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi biz uchun tilimizning ichki va tashqi imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanish imkoniyatini yaratdi. Tilimiz asrlar davomida necha minglab turkiy ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bo'lib, o'zbek xalqi orasida aloqa vositasi, shuningdek matbuot va badiiy adabiyot tili bo'lib xizmat qilmoqda. Bu tilda Mahmud Koshg'ariy, Nosuriddin Rabg'uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Muqimiy, Cho'lpon, Fitrat va boshqa qator adiblarimiz o'zlarining tarixiy badiiy asarlarini yaratib, uning qudratini namoyish qilganlar. O'zbek tilining o'ziga xos jilosi, uning serqirraligini to'laroq anglash uchun adiblarimizning badiiy asarlari tilini o'rganish zamon talabidir.

Ma'lum bir asarning g'oyaviy mazmunini, badiiy-estetik qimmatini to'la anglamoq uchun matndagi har bir til elementini chuqur his qilib, tahlil qilish lozim. Bu esa bo'lajak mutaxassisdan chuqur bilim va malakani talab etadi.

Matnning lingvistik tahlil usullari bir qancha bo'lib, bu tahlilning maqsadi, yo'nalishi va qamrovini asar hajmi jihatini hisobga olib ikkiga ajratish mumkin: tematik va kompleks tahlil.

1. Tematik tahlil deganda, biror bir badiiy asarni tilning bir jihati bo'yicha va ma'lum tamoyil, usullar bo'yicha tahlil qilish nazarda tutiladi. Tematik tahlil asosan, til sathlaridan biri bo'yicha amalga oshiriladi. Masalan, Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanini leksik-semantik jihatdan tahlil qilamiz, deylik. Asardagi lug'aviy birliklar (ayrim so'zlar, iboralar, maqollar, matallar, aforizmlar) ajratib olinadi. Lug'aviy birliklar asar badiiyatiga qay darajada xizmat qilishi, an'anaviy yoki individual ekanligi aniqlanadi. Matn komponentlarining birikish usullari alohida o'rganiladi. Matn tiplari va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

2. Kompleks tahlil. Tilning barcha sohalarga xos birliklar va ularning muayyan bir asarda qo'llanishini matnning umumiy mazmuni, janri, tarkibiy tuzilishi bilan o'zaro bog'liklikda olib o'rganish kompleks tahlilning asosini tashkil etadi. Bu xildagi tahlil umumfilologik yo'nalish, mazmun va xarakter kasb etadi. Shuning uchun matnni tahlil qilishdan avval adabiyotshunoslik va tilshunoslik bilan aloqador sohalarning tamal qonuniyatlaridan, albatta, xabardor bo'lishimiz kerak. Kompleks tahlil biror bir ijodkorga bag'ishlangan bo'ladi. Bunday tahlilni bir asarni turli sathlar bo'yicha yoki bir necha asarni bir sath bo'yicha o'tkazish mumkin. Masalan, Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romani lingvopoetikasi (til sathlari bo'yicha). Yoki Abdulla Qodiriy asarlari lingvopoetikasi. Bunda adib qalamiga mansub barcha asarlarning lisoniy xususiyatlari tekshiriladi va natijalar umumlashtirib tahlilga tortiladi. Bu oson ish emas. Shuningdek, bir yoki ikki kishining ishi ham emas. Adib asarlarini har taraflama tekshirish, tahlil qilish, shu kungacha qilingan barcha ishlarni bir joyga to'plash, tasniflash indeksli ma'lumotlar bazasini yaratish, zaruriy lug'atlarni tayyorlash va boshqa ishlarni amalga oshirish jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan lingvopoetikaning faoliyat doirasiga kiradi.